



BOSHQARUV TAHLILINING ASOSIY TAMOYILLARI VA ICHKI IMKONIYATLARINI TOPISHDAGI AHAMIYATI

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Boltatoshev Muhammadqodir

Guliston Davlat Universiteti talabasi

***Annotatsiya.** Bu maqolada, boshqaruv tahlili fanining asosiy tamoyillarini va korxonani ichki imkoniyatlarini topishda foydalanadigan tamoyillarni taqdim etadi. Maqolada boshqaruv tahlilining asosiy tamoyillaridan foydalangan holda korxonada barcha sodir bo'layotgan jarayonlarni statistik va moliyaviy ma'lumotlardan foydalangan holda tahlil qilishni ko'rsatiladi. Bu tamoyillar yordamida korxonada sodir bo'layotgan barcha jarayonlarni yanada yaxshiroq integratsiyalash va buning natijasida jarayonlarni yanada tezroq, samaraliroq va sifatliroq qilishni muvaffaq bo'lishga yordam beradi.*

Kirish. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes-rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko'zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun ham rejalashtirish bilan tahlil o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinib turadi. Biznes-reja tuzish korxonada faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi. Biznes-rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarning iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

Asosiy qism. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni boshqarishda tahlilning roli keskin oshmoqda, chunki, boshqaruv tizimida oldingi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib, yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanmoqda. Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o'rganuvchi va ularning tadqiq qilish obyekti deb qarovchi alohida fanning o'zi amal qiladigan tamoyillari mavjud bo'ladi. Tamoyillar o'rganiladigan obyektning bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi. Shu jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari bor. Mazkur tamoyillar tahlil fani obyektlarining obyektivligini, mantiqliligini, shakl-mazmunini, miqdor-sifatini va shu kabi jihatlarni tavsiflab real voqelikni yagona tushunchasini hosil qiladi.



Asosiy tamoyillari

Tamoyillar	Mazmuni
1	2
Tizimalilik	Tahlil etilayotgan obyekt alohida bir butun tizilma yoki tizilmaning elementi deb qaraladi.
Ishonchlilik	Olingan ma'lumotlarda xato yo'qligi va haqqoniy ekanligi, realligi
Taqqoslanuvchanlik	Ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligi, ularning bir asosli tarzda turli davrlar va boshqa korxonalar faoliyati to'g'risidagi xuddi shunday ma'lumotlar bilan qiyosiy o'rganish
Betarafililik	Axborot foydalanuvchilarni bir guruhining zarari hisobiga boshqa guruhlar manfaatlarining qondirishning o'rinsizligi
Davriylik	Olingan ma'lumotlarning davriy oralig'i, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan vaqtda ta'minlab turish
Pulli baholash	Barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarning so'mda ifoda etilishi
Hisobga olish	Daromad va xarajatlarning yuzaga chiqish vaqti, o'rni va markazlari bo'yicha hisobga olinishi
Mazmunning shakldan ustunligi	Ma'lumotlarning hisob va hisobotdagi shakllardan huquqiy jihatdan uning mohiyati va iqtisodiy voqeligi bo'yicha hisobga olishdagi ifodasini ustunligi
Aniq baholash	Aktivlar va foydaning joriy davr bozor narxlarida qayta ifodalanishi
Uzluksizlik	Korxonada xo'jalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlarni o'z yakuniga qadar hisobda uzluksiz aks ettirilishi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini tahlil etishda asosiy quyidagilar hisobga olinadi:


- o'rganilayotgan obyektga (hodisaga) to'g'ri va xolis baho berish;
- korxonaning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;
- tuzilgan biznes-rejalarning to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish;



-har bir yo‘nalishga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta‘sirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish;

-moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan samarali va oqilona foydalanganlikka baho berish;

Xulosa. Korxonada faoliyatini boshqaruv tahlilini asosiy tamoyillari yordamida tahlil qilish orqali korxonada faoliyatini qay darajada olib borilayotganini aniqlash mumkin. Korxonaning o‘tgan va hozirgi vaqtidagi faoliyatini tahlil qilib uning keying vaqt uchun eng samarali boshqaruv usulini tadbir etishimiz mumkin bo‘ladi. Korxonada faoliyatini o‘rganish jarayonida uning statistik, moliyaviy va boshqaruv ma‘lumotlarini tahlil qilish va tahlillar natijasida barcha jarayonlarni biznes-reja bilan birgalikda olib borilayotganini aniqlash maqsadga muvofiq.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.B.Muxametov. Moliyaviy hisob.-T.: Moliya. 2024.-272 b.
2. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
3. Gulizahro, T., Dilnura, T., Maqsad, B., & Firdavs, S. (2023). TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT STATISTIKASI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 105-107.
4. Sevinch, O., Jaloliddin, J., & Gulizahro, T. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAMLAKATNING IJTIMOY VA IQTISODIY RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI (STATISTIK KO'RSATKICHLARDA AKS ETISHI). *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 175-177.
5. Gulizahro, T., Feruza, B., Diyora, Q. C., & Ma'mur, U. (2023). Korxonalar buxgalteriya hisobini yurutishda uzoq muddatli aktivlarning o'rni va ahamiyatli. " *Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari*" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10), 48-50.
6. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.
7. To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
8. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 202-208.
9. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.
10. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. *Interpretation and researches*, 1(5).